**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**KASBIY TA’LIM FAKULTETI**

# REFERAT

**Mavzu: Ganchkorlik san’ati va uning tarixi**

**Bajardi:** **ErgashovPo’lat**

**Tekshirdi:** **o’qit. A. Gadauev**

**Samarqand 2017**

# Ganchkorlik san’ati va uning tarixi

## Reja:

1. Ganchkorlik san’ati va uning tarixi
2. Ganchkorlikda ishlatiladigan asboblar.
3. Ganchkorlikda ishlatiladigan materiallar
4. Ganch uymokorligida ishlatiladigan naksh elementlarini chizish

Ganchkorlix siymosi ravoki,
Nechunkim, kosh ichinda kuzning oki.

Alisher Navoiy

## Ganchkorlik san'ati va uning tarixi

Ganchkorlik kadimiy sa'nat turlaridan biri bulib, uz aksini dunyo me'morchiligida ,jumladan Markaziy Osiyo, Eron, Turkiya, Arabiston va boshka Shark me'morchiligida namoyon etib kelmokda. Ayniksa, Markaziy Osiyoda yaratilgan asarlar uziga xos badiiyligi, kompozisiyasi va ishlanish uslubi bilan fark kiladi. xozirgi kunda ganch serkuyosh Uzbekistonnimizda ardoklanib, avaylab muxofaza kilinayotgan kupgina yodgorlik obidalariga kurkamlik, guzallik baxsh etib turibdi. U Samarkand, Buxoro , Toshkent, kukon, Xiva, Shaxrisabz va boshka shaxarlardagi tarixiy obidalarni kurish va bezatishda ishlatilgan.

Ganch uymakorligi san'ati asrlar davomida uziga xos uslub bilan rivojlanib keldi. Bu san'atning Eng kadimgi, urta asrlardagi va XX asrdagi rivojlanishini urganish bu davrlardagi ganch uymakorligi bir-biridan ancha fark kilganligini kursatadi. kadimgi ganch uymakorligi xajmli bulib, realistik tasvirlar asosida ishlangan. Ularda kupincha odamlar, xayvonlar, kushlar tasviri ishlatilgan. Eramizning birinchi asrlaridayok kishilar ganchni ajoyib xususiyatga ega ekanligini bilib, kal'alar, karvonsaroy va boshka joylarni bezay boshlaganlar. Birok asrlar davomida bulib utgan janglar okibatida ular vayronaga aylanib, fakat koldiklari saklanib kolgan.

Jumladan III asrda Tuprokkal'aning serxasham saroy mexmonxonalari uyma ganch bilan bezatilgan. Varaxshadagi topilmalardan VII-VIII asrlardagi Buxoro saroyi koldiklaridan namunalar topilgan. Bu topilmalarda kushlar, xayvonlar, baliklarni , usimliksimon va geometrik shakllarning uyma namunalarini kurish mumkin

X-XI asrlardagi nakkoshlik, yoxoch, tosh va ganch uymakorligi yanada rivojlandi. Murakkab abstrakt tasvirni aks ettiradigan nakshlar paydo buldi. Ganch uymakorligi ishlari uyning ichki va namgarchilik tegmaydigan tashki kismida xam kullanildi.

Termiz makbaralaridagi ganch uymakorlik san'atini usha davrning yukori chukkisi desa buladi. XII asrda mukarnaslar xosil buldi va ular kupgina binolarda kulanila boshlandi.

XIII asrda ganchkorlik san'ati yanada yuksaldi. Bunga Afrosiyobda topilgan ajoyib ganch uymakorligi ishlari misol bula oladi. (1- rasm) . XIV- XVIII asrlarda xam binolarning ichki kismlarini bezatishda ganchkorlik san'atidan foydalanilgan. Ganchkorlikning gullab-yashnagan davri XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlari buldi. XIX asrning boshlarida buyuk ganch uymakorlaridan Abduraxim xayotov, Usta Murod, Usta Fuzayl, Usta Nosir, Usta xayot Nosirov, Usta xoji xafiz, Usta Nasrulloboy, Usta Abdujalil, , Usta Azim, Usta Omonullo, Usta gofir, Usta Ibroxim, Usta Sarvi, Usta Abdufattox va boshkalar faoliyat kursatdilar.

XX asr boshlaridagi ishlarda uyma relyefli juda mayin uslub texnikasi paydo buldi. Rangli ganchlar, buyoklar, naksh va tasvirlar kulanila boshladi.

1913-1914 yillarda Buxorada amir Axadxon tomonidan Sitorai Moxi Xosa kurildi. va ganch uymakorligi bilan bezatildi. Ayniksa ok uy (mexmonxona)ni usha davrdagi ganch uymakorligining ajoyib namunasi desa buladi. Bunda oyna zaminida ganch uymakorligi bajarilgan. U uzining nozikligi, jimjimador kilib bezatilishi bilan ajralib turadi Mazkur saroyning bezak ishlarini Usta Shirin bajargan. U usha davrda eng kuzga kuringan ganchkor ustalaridan edi.

1918- 1920 yillarda xunarmandlar komiteti Toshkentda ulkashunoslik xunarmandlar tashkiloti ,ukuv namunaviy ustaxonalar va xunarmandlik ishlari buyicha muzey tashkil etdi. Uzbekistonn xunarmandlari uz ishlari bilan 1937 yilda Parijda " San'at va texnika xozirgi kunda" degan kurgazmalarda ikkita " Gran pri", ikkita kumush medal va bitta oltin medal bilan mukofotlandilar.

1947 yili Toshkentda me'mor A. Muxamedshin boshchiligida Kurant binosi kurildi. Bu binoni bezashda Usta Shirin Murodov katnashdi.

Uzbekistonn me’morchiligiga katta xazina bulib kushilgan Uzbekistonn Davlat opera va balet katta teatri 1947 yili akademik arxitektor Aleksey Shusevning loyixasi va raxbarligi ostida kurib bitkazildi. Shusev Uzbekistonndagi ganchkor ustalarni bir joyga yixib, ular oldiga ikki muxim masalani: teatr zallarini xar bir viloyatning uziga xos milliy uslubi asosida bezash, ikkinchisi- bezalgan xona teatrning me’morriy mazmuniga mos tushishi kerakligi xakidagi masalani kuydi. Buning natijasida teatrning Xiva, Termiz zallari kadimda ishlatiladigan ganchkorlik uslubida ishlandi. Buxoro, Toshkent, Farxona va Samarkand zallari esa zamonaviy xalk an’anasiga mos bulgan ganch uymakorligi bilan bezatildi.

Uzbekistonnda uziga xos ganchkorlik maktablari mavjud. Shulardan biri Xorazm ganchkorlik maktabidir. Xorazm me’morchiligida geometrik nakshlarga keng urin berilgan bulib, ular boshka viloyatlarga karaganda uziga xosligi bilan ajralib turadi. Ayniksa, usimliksimon nakshlar spiral shaklida aylanma xarakatchanligi, dinamikligi bilan fark kiladi. Islomiy nakshlar kupincha yaxlit-yaxlit turunj, madoxil, kalampir, bodomga uxshash tanob shakllarining takrorlanishidan xosil buladi. Ba’zi xollarda turunj, madoxili tanoblari urniga yulduzsimon girixlar xam ishlatiladi. Islomiy nakshlarda novda juda kup ishlatilib, marxula, barg (uch barg), shkufta, oygul, naxot gul, kurtak va xunchalar kup kullaniladi. Xiva ganchkorligidagi eng xarakterli tomonlaridan yana biri nakshlarning erkin va xarakatchanligi , jushkinligidir: Inchunun bu maktab nakkosh ustalari kup xollarda kuk va yashil rang bilan ishlaganlar. Ruzimat Masharipov, Karimbergan Raximov, Karimbergan Polvonov, Yusuf Xudoyberganov, Bekjon Yokubov, Odamboy Bobojonov, Odamboy Yokubov kabilar Xorazm ganchkorlik maktab namoyondalaridandir.

Buxoro ganchkorlik maktabi ganchkorlik san’atining eng rivojlangan joyi va uchoxi xisoblanadi. Zero, bu san’at uyma ganchlarning yirik xamda uziga xos mayinligi, jozibadorligi va boshka tomonlari bilan ajralib turadi. Buxoro ganchkorlik maktabining eng yirik namoyandalaridan biri akademik Usta Shirin Murodovdir. Buxoro ganchkorlik maktabi namoyondalari Usta Safar, Usta Adis,

Usta Savri, Usta Isom , Usta Ikrom, Usta Jura, Usta kurbon Yuldoshev, Usta Ibroxim xafizov, Usta Nazrullo Yodgorov , Usta xayot Nosirov va boshkalardir.

Toshkent ganchkorlik maktabi xam uziga xosdir. Bu maktabga xos nakshlar nozikligi, anik simmetrik taksimga egaligi, jozibadorligi bilan ajralib turadi. Toshkent ganchkorlik maktabi namoyandalari safida Usmon Ikromov, Toshpulat Arslonkulov, Maxmud Usmonov, Anvar Pulatov, Mirmaxmud Raxmatov, aka-uka Abduraxmon va Mumin Sultonovlar, xayot Abdullayev, Ziyodulla Yusupov, Umar Toxirov, Mirvoxid Usmonov kabi kator yetuk ustalar bor.

Samarkand butun dunyoga mashxur eng kadimiy shaxarlardan biri bulib, u yerda ishlangan nakshlarning xar biri uziga xos maktabga ega. Boshka ganchkorlik maktablarining nakshlari xam uzining tuzilishi jixatidan Toshkent nakshlariga uxshab ketadi. Samarkand ganchkorlar maktabi namoyandalari Usta Anvar kuliyev, Usta Tursunboy Ismoilov, Shamsiddin gofurov, kuli Jalilov va boshkalarning ishlari shunga misoldir.

Ganch uymakorligi turlari . xar kanday binoni bezashda avval uning tuzilishiga mos ganch uymakorligi turini tanlash, kullash muxim axamiyatga ega. Kichik xonaga mayda tekis uyma va unga mos bulgan pardoz turi katta mexmonxonalarga esa yirik yoyma va uziga xos ganch uymakorligi kullaniladi. Ganch uymakorligi, yirik uyma, chukur uyma, yassi uyma, kirma, zamini kuzguli uyma, zamini rangli uyma, chizma pardoz,panjarasimon uyma, zanjira, xajmli uyma turlaridan iborat. Bundan tashkari, ganch uymakorligi turlari zaminli va zaminsiz uymalarga bulinadi.

Eng kup kullaniladigan uyma yassi uymadir. U interyerda kup kullaniladi. Albatta katta bulmagan xonalarda uymaning chukurligi 1-1,5 sm bulib ularga xar xil pardoz turlari beriladi.uyma nakshning zamini umumiy yuzaning 30-60 foizini egallaydi. Unga joyiga moslab pax pardoz, choka pardoz, lula yoki tabaka pardoz beriladi.kirma uyilgan joylarni rangli ganch korishmasi bilan tuldirishkabi amallar bajariladi.

Ganchkorlikda ishlatiladigan asboblar.

utmishda xalk ustalari ustachilik asboblarini mukaddas deb bilganlar xamda uz asbob-uskunalarini iste'dodli shogirdlariga meros kilib koldirganlar. Bu milliy an'ana zamirida chukur insoniy ma'no va mazmun yotibdi. Ana shunday baxtga muyassar bulgan ustalardan biri buxorolik ganch uymakor ustasi akademik Usta Shirin Murodovdir. Uning ustozi Usta xayot kunlardan bir kun Shirinni oldiga chakirib, men sendan xursandman, endi mustakil ishlayversang xam buladi. deydi. Milliy an'ana buyicha , 10-15 ta ustalar , shogirdlar yixilishib, e'tiborga loyik bulgan shogirdga usta nomini berishadi. Bunda uni urtaga chakirib, belidagi eng yaxshi ganch uymakorlik asbobi shuturgardanni kiyikchasiga kistirib kuyishadi va fotixa berishadi.Shundan sung u xalk urtasida usta degan sharafli nomga ega buladi.

Dono xalkimizda " Ish kuroling soz bulsa, mashakkating oz bular" degan makol bor. Shu boisdan xar usta yoki shogird muayyan ishni bitirganidan sung oxirini yengil , mushkulini oson kiladigan ish kurollarini xamisha shay kilib kuyishi, biror ishni kilib bulgandan sung ularni tozalamasdan bir chekkaga uloktirib, zang bostirib kuymasligi, utmas bulib kolsa charxlab, utkir kilib kuyishi, buzilsa tuzayishi, ularni maxsus joyda saklashi kerak.

Ganchkorlikda xam uziga xos asboblar ishlatiladi. Naksh kompozisiyalar chizish uchun chizxichlar, parkor, yumshok va kattik kora kalamlar, daftar, albom, uchirxichlar, shaffof koxozlar kerak buladi. Ganch korish uchun sirli toxora, elaklar, katta va kichik chelaklar, ruletka, andava, ganch yuzasini ishkalash uchun mayin latta, shovun, ulchov asboblari, maxsus kulkopcha, kum koxozlar, simlar va boshkalar zarur (2- rasm) Asboblarni charxlash uchun kayrok tosh, ganch taxta tayyorlash uchun turtta reykali ramka va boshkalar ishlatiladi.(3-rasm). Ganch uyish va pardozlash uchun jaroxlik pichoxi, iskana, shuturgardan (tuya-buyin), kalamtok ( kalami shkufta), minkor, morpech kalamlar, kalampux, patak bindi, iskana, lulakush, zamin kalam, navo kalam, pilta kalam, dudmal kalam va boshka asboblar ishlatiladi. (4, 5, 6 –rasmlar) Ganchkorlar kadimda 20 ga yakin ganchkorlik asbob turlarini tayyorlaydigan temirchi ustalarimiz juda oz kolganligi

va bu asboblar rastalarda sotilmasligi natijasida xozirgi ustalarimiz asosan jarroxlik pichoxi ( skalpel).minkor, iskana va shuturgardandan foydalanmokdalar. Maktabda dastlabki ganchkorlik sirlarini urganish uchun asosan jaroxlik pichoxi va iskana kerak buladi.

Ganch uyish va pardozlash uchun ishlatiladigan asboblar bilan yakindan tanishib chikamiz.

Jaroxlik pichoxi- pulatdan yasaladi va xar xil ulchamli buladi. Undan xozir ganch uymakorligida keng foydalanilyapti. uymani katta yoki kichikligiga karab ustalar xar xil ulchamdagi pichokni ishlatadilar. Undan foydalanishdan avval uni charxlab, dastasini kulga botmaydigan kilish uchun ikki tomoniga yupka faner kuyib, izolenta urab olinadi. Bu pichok uyilayotgan gulni chizishda, kesishda, uyishda va pardoz berishda ishlatiladi. Umuman bu asbob uymakolikdagi turli ishlarni bajarishda kul keladi.

Iskana- duradgorlikda ishlatiladigan oddiy asbob, uning uchi oxma xolatda kesik bulishi xam mumkin. Iskanalar xar xil kattalikda buladi, kichigi mayda uymalarda, kattasi yirik uymalarda ishlatiladi. Iskana tanasining uzunligi 7 sm dan ustaxonasida xam yasab olish mumkin.

Shuturgardan- ganch uymakorligidagi asosiy uyma asbob, bel kismi tuya buyniga uxshash 90:% burchak ostida kayrilgan bulgani uchun u shuturgardan, ya’ni tuyabuyin deb xam yuritiladi. Yassi pulatdan yasalgan keskich kismining tixi bulib teng yonli uchburchakka uxshaydi. Shuturgardan nakshlarning kontur chiziklarini kesishda va uymali relyefga pardoz berishda ishlatiladi. uymaga karab shuturgardanning katta-kichigi tanlanadi. Chunonchi, katta shuturgardan nakshlarining konturlarini uyishda va chukur zaminli uymalarda. urtanchasi uymaga pardoz berishda, kichik shuturgardan esa mayda uyma ishlarini bajarishd ishlatiladi.

Pux kalam -xanjarga uxshagan ikki tomoniga kiyalab ketgan utkir uchli ( uchi yoy shaklidagi ilmokka uxshash kayrilgan buladi.) asbob. Keskich kismining uzunligi 10 sm dan 18 sm gacha bulishi mumkin. Pux kalam egri sirtlarni

tekislashda, pardozda navo ochishda va xokozalarda ishlatiladi. Bu asbob  xam xar xil kattalikda buladi.

Minkor- uzun ukli uch kismiga uchburchak  kurakchali $90^0$ burchak ostida urnatilgan bulib, uyma zaminini  tozalashda, tekislashda va chukurlashda ishlatiladi.

kalamtok - tuzilishi xuddi xanjar kurinishida bulib, keskich kismi ikki tomonga kiyalab utkirlangan. U tirnab chizik chizishda, uyishda va ganchni teshishda ishlatiladi.

Morpech kalam- uyilgan nakshlarning chetlariga yarim doira, burtik xosil kilish, urovlarni kirkish xamda relyefga lula pardoz  berishda, uyilgan nakshlarning chetlariga zanjira, xoshiya atroflarida turli kurinishdagi nakshlar chizish , yarim doiralar, nuktalar chikarishda ishlatiladigan ganch uymakorlik asbobi. Morpech kalam tuzilishi  jixatidan yumalok bulib, sirt kesish uchun ishlatiladi, u pulat andazali tanadan va yoxoch banddan iborat.

Lux-yarim silindr sirtlarini tayyorlash ishlatiladigan ganch uymakorlik asbobi. Keskich kismi yapalok yassi shaklda bulib, uchi $90^0$ burchak ostida buklangan buladi.

kalam- xanjar shaklidagi asbob.  Ba’zilarining uchi kayrilgan buladi, axta yordamida tushirilgan nakshlarning uchib ketmasligi uchun tirnab chizib chikishda ishlatiladi.

Pilta kalam- ganch uymakorlik asbobining bir turi, uning uchi kayrilgan buladi. U yarim aylana shaklidagi relyeflar xosil kilishda ishlatiladi.

Patak binni- shuturgardanning bir turi,  raxlarni uchli kilib kesishda va uyishda ishlatiladi.

Nova- iskana kurinishida bulib, uchi egri, ichki uchi ilmok singari buklangan, utkir uchli ganchkorlik asbobi. Relyeflarni yumalok  kilib kesishda  ishlatiladi.

kalam shukufta – aylantirib teshik  ochishda va chizik  chizishda ishlatiladi.

Lulakash- umumiy kurinishi yarim yumalok  shaklda buklangan, uchi yarim doira shaklida, asosan lula pardozda ishlatiladi. Bu asbob uymaning yirik yoki maydaligiga karab xar xil ulchamda buladi.

Sharafa kalam- uchi kayrilgan iskana, mayda mukarnaslarni uyishda ishlatiladigan ganch uymakorlik asbobi.

Ganch uymakorlik asboblarini maxsus kalamdonda solib yurgan ma'kul.

Ganchkorlikda ishlatiladigan materiallar.

kadimiy obidalarning va undagi bezaklarning umr bokiyligi shundaki, ota-bobolarimiz kadimdan yukori sifatli, xoyat chidamli xamda davr sinovlaridan utgan kurilish materiallaridan keng foydalanganlar. (7, 8 rasmlar) Yoxoch, ganch, tuprok va boshkalar shunday maxalliy materiallarni kayerda va kanday kullash sir-asrorlarini juda yaxshi bilganlar .Shuning uchun xam ota-bobolarimiz kurgan muxtasham binolar, uyma ganch, yoxoch nakshlari xozirgi kungacha uz jilvasini yukotmay turibdi. Shunday materiallardan biri ganchdir.

Ganch maxalliy kurilish materiallaridan biri bulib, uning rangi kukish, sarxish va ok tusda buladi. Ganch turi joylarda turlicha nomlar bilan ataladi. Kavkazda “gaja” , forscha “gaj”, tojikcha” ganch”, turkcha “urunaj”, UZBEKcha “ganch” deb yuritiladi. Ganch gips bilan tuprokning tabiiy aralashmasi bulib, uning tarkibida 40 foizdan 70 foizgacha gips buladi. Ganchning tabiiy va sun'iy turlari mavjud. Tabiiy ganchlar katta xarsang tosh xolida bulib, undan tugridan-tugri uyib, yunib, tirnab kurilishda ustun, xaykal va bezak sifatida foydalaniladi. Sun'iy ganchlar esa maxsus pechlarda kizdirilib, keyin maydalab tayyorlaydigan ustalar bulib, ularni ganchkoplar deb yuritganlar. Ganchkoplar olib kelingan tabiiy ganch toshlarni yukori issiklik kuvvati beradigan xumdonda 120-150 daraja xaroratda kunduz kuni 6-7 soat kizdirib, ertalabgacha asta-sekin sovitib kuganlar. Erta bilan ganch toshlarni maxsus tukmoklar bilan maydalashgan, ularni xalvir va elakdan utkazishgan. Bu ganchlar sortlarga ajratilgan. Eng mayin ganchlar gulganch deb, ya'ni uyish uchun ishlatiladigan ganch deb yuritiladi. Bu ganch kanchalik mayin bulsa, uyma shenchalik nafis, badiiy chikkan. Mayin ganchlar nafis uymakorlikda, pardozda berishda ishlatiladi (14-rasm). Yirik ganchlar xar xil suvok, kora suvok va xisht terishda ishlatiladi. Yukori xaroratda kizdirish natijasida ganch tarkibidagi nam juda kamayib, uning kuvvati oshadi.

Ganch urnida alebaster xam ishlatiladi. U suvok ishlarida, xisht terishda, ayrim xollarda esa gulganch xam kullaniladi.

Ganch uymakorligi bilan shuxullangan ustalar ganchkorlar deb ataladi. Ular ganchning kanchalik tez yoki sekin kotishiga karab kuvvatini aniklay biladilar. Katta tajribali ustalar esa ganchni kulga olib kismlaganining uzidayok uning eski yoki yangiligini, kuvvatini aytib bera oladilar. Odatda , ustalar ganchning kuvvatini aniklashda ozgina korib uyib kuradilar. Agar kuvvati juda kuchli bulsa, xattoki ming martabagacha suvda aylantirishni talab kilishi mumkin. Ganchning juda kup sirli xususiyatlari bor. Shuning uchun xam ganch korish texnologiyasi uncha murakkab bulmasa-da, uning uziga xos nozik tomonlarini bilish lozim. kadimgi ustalar ganchni sirli idishlarda korganlar, xozir esa yangi plastmassa idishlardan foydalaniladi. Ganch korishning tez ganch, soxta ganch, duxob, xovonda usullari bulib, ular uziga xos nozik yoki murakkab buladi.

Tezganch- tez kotuvchi ganch korishmasi bulib, ganchkorlikda, ravok boxlashda, suvok va xar xil ishlarda ishlatiladi. Bu korishmani tayyorlash uchun idishga suv solinib ustidan ganch solinadi.( albatta, ganch elangan bulishi kerak) va tezlik bilan koriladi,ganchni kup aylantirilmaydi. Tezganch korishmasi tezlik bilan ishlatilmasa, u kotib koladi.

Soxta ganch - korilgandan keyin 30 dakika atrofida kotmasdan turadi. Soxta ganch korishmasinini tayyorlash uchun idishga suv solinib, ustidan elangan ganch suv yuzasiga sepib solinadi. Bu suv yuzasi ganch bilan berguncha kadar takrorlanadi. Bunda ganch suvga tuyib boradi. Usta idishdagi shu soxta ganch korishmasini bir chekkadan olib, kerakli joyga ishlatiladi.

Duxob usuli- biroz yuza yoki narsani tuldirish yoki berkitish uchun ishlatiladigan suyuk korishma. Idishga suv solinib, yuzi berkitilguncha ganch sepiladi. Bu usulda tayyorlangan korishma soxta ganchga karaganda biroz suyukrok bulishi kerak. Bu ganch korishma narsalarni berkitish yoki tuldirish uchun ishlatiladi.

Xovonda usuli. Bu usulda gul uyishga muljallab ma'lum darajada kuchi kamaytirilgan ganch koriladi. Uni tayyorlashning uziga xos tomonlari bor. Buning

uchun sirli yoki plastmassa toxoraga  suv solinadi. Unga elangan, mayda ganchni oxista, shoshilmay sepib turiladi. Ganch  suv yuziga chikib ketmasligi  uchun idish osti kafti bilan davra shaklida aralashtiriladi. Tayyorlangan korishma biroz kota boshlaganda uni ishlatish mumkin. Ganch kanchalik kuchli bulsa, shuncha marta kup koriladi. Shuning uchun kadimgi ustalar yukori kuvvatli ganchlarni ishlatganlar. Ular  xovondani moxirlik bilan tayyorlashgani uchun ishlari bejirim, nafis va guzal chikkan . Ustalar yukori kuvvatli ganchlarni juda kup korganlar , shuning uchun xam ganch korishma shuncha nafislashgan, mayinlashgan. Sekin va yumshok xolatda kotgan xovondagi ustalar shirach kushganlar. Shirach ganchning kuvvatini oshirgan.

Ganch urniga gips xam ishlatiladi. Gips- ok, rangsiz shaffof, kizil, koramtir yoki  kora rangdagi mineral. U juda murt bulib, suvda eriydi.80-90 gradus xaroratda kizdirilganda tarkibidagi suv buxlanib ketadi. Agar 120- 140 gradusda kizdirilsa alebastrga aylanadi.  U kurilish materiali, undan koxoz, sement sanoatida, tibbiyot, xaykaltaroshlikda, uymakorlikda va buyok ishlashda xam foydalaniladi.

Ganch ishlarini bajarishda ustalar maxsus tayyorlangan shirachni ganchga kushib ishlatganlar. Shirach ganch uymakorligida va xisht bilan terishda kadimdan foydalanib kelingan. Shirachni ganchga kushishdan maksad  ganchni sekin kotishini va kotgandan sung toshga uxshash kattik bulib kolishini ta’minlashdir.

Bino detallari, ustunlari, xaykalchalar, sharafa, mukarnas, xajmli nakshlar va boshka narsalarni kuyma usulida tayyorlashda  ustalar ganchga sut, kazein shirachi va boshkalarni kushganlar. Bular esa  ganchning kuvvatini yanada oshirgan, umrini uzaytirgan.

Bulardan  tashkari, ganchkorlikda doir ayrim ishlarda tuprok , kum, xar xil pigmentlar, sim va boshka narsalar xam ishlatiladi.

## Naksh va uning turlari

Nakshlar buyumga, devorga yoki kanday joyning bezatilishiga karab uziga xos turli –tuman uslubga, bajarilish  texnologiyasiga va mazmuniga ega buladi.

Nakshning uzi nima?Uning kanday turlari bor?

Naksh tili deganda nimani tushunasiz?

Naksh – arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. U elementlari ma'lum tartibda takrorlanadigan kush, xayvon, usimliklar , geometrik shakllar va boshkalarning ma'lum tartibda takrorlanishidan xosil kilingan bezakdir. Ganchkorlik , kandakorlik, kashtaduzlikda, zarduzlik, kulolchilik, zargarlik, gilam tukish, yoxoch uymakorligi va xokozolarda xar xil yullar bilan turli kurinishdagi nakshlar ishlatiladi.

Masalan:uyib, chizib, chok yordamida zarb bilan , kadab va boshka usullarda naksh solinadi.

Ganch uymokorligida ishlatiladigan nakshlar mazmuniga kura usimliksimon ,geometrik nakshlarga , gulli girix , ramziy va boshka turlarga bulinadi. usimliksimon naksh tabiatdagi barg band,, daraxt, buta, xuncha va boshka narsalarni nakkosh tomonidan stillashtirib olingan shaklini ma'lum konuniyatlar asosida takrorlanishidan xosil kilingan (9-rasm)

Geometrik naksh turlaridan biri girix bulib,chigal.tugun ma'noni anglatadi.xandasiy naksh murakkab naksh turi (10-rasm)

U geometrik naksh turlaridan biri bulib, turtburchok, uchburchak, aylana va yoylardan iborat buladi. Tuzilishi jixatidan tugri chizik, egri chizik va aralash chiziklardan tashkil topgan girixga bulinadi.

Geometrik naksh uzluksiz taksimlardan tashkil topgan bulib, xar bir taksim uz tuzilishiga ega buladi. Yevropada arabeska deb yuritiladi.

G u l l i g i r i x usimlik va geometrik naksh elementlaridan tashkil topgan naksh turi(11-rasm)

R a m z i y n a k sh l a r -kabutar, urok, bolxa, shox, balik. davlat gerbi va boshkalarning stillashtirib tasvirlangan elementlaridan tashkil topadi.

Ota-bobolarimiz kadimiy obidalarni nafis nakshlar bilan bezar ekanlar, zavk olish bilan bir katorda ular orkali uz orzu-umidlarini, muxabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar. Nakkosh ota-bobolarimiz inson ruxiyatini juda chukur va xar taraflama urganib, uylarni ajoyib nakshu nigorlar bilan boyitganlar. Nakshlangan uyda kishilar xotirjam, ruxiy osoyishtalik oxushida bulishi, uzok umr

kurishini donishmand bobolar asrlar davomida xayotiy tajribalar asosida ilxaganlar. Keksa ustalarimiz aytishicha, kadimda nakkoshlik san’ati shunchalik rivojlangan ekanki, ular chizgan yoki buyagan nakshlari orkali bir-birlari bilan unsiz ovozda gaplasha olar ekanlar. Nakkoshlik san’ati tilini bilish uchun nakshning xar bir elementi va ranglarining ramziy alifbosini bilmok kerak bulgan.

Amir Temur, Alisher Navoiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Nosir Xisrav, Kamoliddin Bexzod, Maoniy, Firdavsiy, Umar xayom, Bobur kabi jaxonga mashxur olim, shoir va nakkoshlar binolarimizni kishilar xayolini uziga tortuvchi, tabiatning guzal manzaralariga monand nakshlar bilan bezashga chakirganlar. Kishilarni guzallik bilan yakin dust, birodar bulishiga undaganlar.

Chunonchi Samarkandning eski shaxar markazi, ya’ni Registonda savlat tukib turgan Sherdor madrasasiga bir nazar solaylik. Uning peshtoklari, baxaybat gumbazlari va chiroyli minorlari, rang-barang sirli koshinlari xamda nafis, xashamatli, dabdabali ishlangan jimjimali koplamasi kishini xayratga soladi. Ushbu madrasa boshka me’moriy yodgorliklar singari uz mazmuniga va tarixiga ega.

Buxorodagi Ashtarxoniylardan Muxammad Imomkulixon davrida xonning eng ishonchli xamda yakin kishisi, ya’ni Samarkand xokimi Yalangtushbiy Baxodir nixoyatda boyib ketgandan sung, Samarkandda Mirzo Uluxbek nomidagi madrasaning karshisida 1610-1636 yillarda zamonasining mu’jizasi xisoblangan Sherdor madrasasini kurdirtiradi. Bu ajoyib bino shaxarning kurkiga kurk kushib, barcha shoiru olim, ulamo-yu fuzalolar va shaxar xalkining olkishiga sazovar buladi. Yalantushbiy Baxodir me’mor Abdul Jabbor oldiga xech bir narsada uzining ulux ajdodlaridan kolishmasligini nakshlar orkali xalkka yetkazish vazifasini kuygan. San’at kalitini egallagan mashxur me’mor uz oldiga kuyilgan falsafiy fikrni naksh tili bilan xalkka unsiz ovozda yetkaza bilgan. Sherdor madrasaning bosh fasadi jozibali chikkan bulib, uning peshtoki mutanosib (simmetrik) kilib ramziy nakshlar bilan bezatilgan, kizxish zarxal yulbarssimon sherlar nozik oxularga kuvib yetib tashlanayotgani va ularning ortidan kulib turgan

odam kiyofali  kuyosh esa zarxal yoxdu bilan xoshiyalangan. Ularning atroflariga islomiy nakshu nigoralar ishlangan.

Tasvirda epchil, kuchli, yengilmas sher ramziy ma’noda Yalangtushbiy Baxodirga ishora kilingan, uning mukoyasi kilib kuchsizlik ramzi tarikasida oxu tasvirlangan. kuyosh esa usha davr va  xayot ramzi tarikasida olingan. Zangori rangli koshinlar orkali koinotni va tinchlikni, nozik usimliksimon gul-nakshlar orkali boxu bustonni, tabiatni aks ettirgan.

Xush nakkoshlikda ramz nima? Ramz arabcha “ ishora kilmok” suzidan olingan, tabiatni, vokelikni xayotdagi kuvonch va tashvishlarini, dust va dushmanlarni, yaxshilik va yomonlikni naksh elementlari, jonli chiziklar, ranglar orkali tasvirlashdir.

UZBEK milliy naksh tili alifbosi  kuyidagilardan iborat:

a) Geometrik naksh elementlarining ramziy ma’nolari.

Teng tomonlari uchburchak- tik turgan xolati xayotning  boshlanishini, teskari turgan xolati esa xayotning oxirini bildiradi.

Teng yonli uchburchak – yaxlit bulingan bulak, ayrilik.

Kvadrat-dunyoning turt tomoni, osmon saroyi, kuyosh farzandi, abadiylik, yoruxlik, mustaxkamlik.

Tugri turtburchak- ishonch.

Romb-ayol, ya’ni ona yer ramzi, serfarzandlik.

Aylana-olam ,baxt, kuyosh, odamlarni yovuz niyatidan kaytarish ramzi.

Besh kirrali yulduz- xayotning kiskaligi, besh kunlik dunyo.

Yarim aylana-baxt.

Yarim oy- islom dinning ifodasi. Musulmonlik ramzi.

kuyosh- xayot ramzi.

Bulut, olov- xoliblik ramzi.

b) Ismoliy naksh elementlarining ramziy ma’nolari

Bodom — baxt-ikbol.

Barg — baxorgi uyxonish.

kamampir -- xar xil yomonliklardan va yomon kuzdan asrash ramzi.

Zirk guli (gulsafsar)—osoyishtalik va umr uzokligi.

Anor – ezgulik, tukchilik.

Oygul – baxt-ikbol ramzi.

Jingala – tukin – sochinlik, boylik ramzi.

Olma –muxabbat ramzi.

Novda – boylik va farovonlik.

Yaprok -- baxorgi uyxonish, navruz.

Isirik – yomon kuzdan asrash ramzi.

Atirgul – guzallik ramzi.

kush va xayvonlarning ramziy ma’nolari.

Sher – mardlik, jasorat va kuchlilik ramzi.

Tulki – makkorlik.

Chumoli – donolik , xokisorlik ramzi.

Bulbul – sadokat

Xumo – baxt keltiruvchi kush.

Boykush – baxtsizlik , vayronalik.

Balik -- xushyorlik ramzi.

Sichkon – uy xayvonlarining kupayish ramzi.

Echki yoki kuchkor shoxi – jasurlik,mardlik , pokizalik ramzi.

Ok kabutar – tinchlik.

Oxu – guzallik, ximochsizlik , noziklik .

Buyumlarning ramziy ma’nolari.

Taka – yomon kuzdan asrash ramzi.

Ranglar

Yashil rang – ona tabiyat ramzi.

Kuk rang – moviy osmon, tinchlik va yomon kuzdan asrash ramzi.

kizil rang - xalaba , xursandchilik, shodlik.

Sarik rang – mukaddaslik .

kora rang – motam.

Sarik gul – ayrilik.

Zangori – oliy e’tikod.

Ok rang – tozalik , yoruIlik, baxt , omad ramzi va xokazo.

Ganch uymokorligida ishlatiladigan naksh elementlarini chizish

Ganch uymokorligini urganishda naksh chizish muxim axamiyatga ega, Naksh chizishni yaxshi bilmasdan turib ganch uymakorligida katta muvaffakiyatlarga erishish mumkin emas. Zero ganchni xar kancha chiroyli kilib uymang, naksh chizishni yaxshi bilmasangiz xech kim sizni yetuk usta deb tan olmaydi.

xar bir xalk amaliy san’at turlarida uziga xos tuzilishga, kurinishga va mazmunga ega bulgan nakshlar ishlatiladi. Shu katori ganch uymakorligida ishlatiladigan nakshlar xam uziga xos xarakterga egadir. Tabiiyki, nakkoshlik, yoxoch uymakorligi, tosh uymakorligi, kashtachilik va boshka san’at turlarida ishlatiladigan naksh elementlari va nakshlari uziga xos ravishda bir-biridan fark kiladi.

Ustalar tabiatdagi gul, barg, novda, xuncha, kabutar, tovus va boshkalarning tuzilishini, usish konun-koidalarini. kurinishini sinchiklab urganib, ulardan turli naksh kompozisiyalar ishlash uchun xar xil elementlarni stillashtirib olganlar. Chunonchi , usta gulni stillashtirib olar ekan, uning guzalligining kaysi xolatdagi (ustidan , yonidan yoki tagidan) kurinishini tasvirlashni izlab topadi.

Ganch uymakorligi, nakkoshlik, yoxoch uymakorligi va boshkalarni urganishga kirishayotgan xar bir kishi naksh elementlarini chiza olishni urganishi kerak. Bu elementlar naksh ishlashning alifbesi xisoblanadi.Biz ganch uymakorligi sir-asrorlarini urganishga kirishar ekanmiz, avvalo usimliksimon naksh elementlari barg, gul, marxula va tanob, shkufta, boxlam va sirtmoklarning turlari nomlari va ularni chizishni urganamiz. (12-rasm).

Barg -usimliksimon naksh elementi bulib , nakkoshlar tomonidan tabiatdagi usimlik bargining stillashtirib olingan tasviri. Barg naksh kompozisiyasida tuldiruvchi va xusn beruvchi elementdir. U tuzilishiga kura oddiy va murakkab turlarga bulinadi . Oddiy barglarga uch barg ,bodom bargi , tol bargi va boshkalar kiradi. Murakkab barglarga esa kup barg, shobarg va boshkalar kiradi. Barglarning

kuidagi turlari bor : shobarg (shaxona barg) eng katta barg , kush barg , kup barg , chor barg (turtta barg) , xurmo bargi , tol bargi, anor bargi , kashkarcha bargi, madoxil barg , kushbodom barg ,kalampir barg , nok bargi ,sambit barg, butok barg va boshka 50 dan ortik turlari .

guncha – tabiatdagi xuchalarning usta tomonidan stillashtrib olingan tasviri.

Gul- tabiatdagi gullarning stillashtirib olingan tasviri bulib, naksh kompozisiyasida tuldiruvchi va xusn beruvchi element xisoblanadi. Gullarning xar xil turlari bulib, ular uziga xos nomlanadi. Chunonchi uch- besh yaprokli oygul, bargli oygul,lola gul, paxta gul, nuxat gul, chinni gul, savsar gul, atir gul, gultojixuroz va boshkalar.Tuzilishiga kura gullar oddiy va murakab gullarga bulinadi. Murakkab gullarga pista gul,kup bargli gul va boshkalar, oddiy gullarga esa oygul, lola gul,nuxat gul va boshkalar kiradi. Gullar xar xil tuzilishiga ega bulganligi uchun ularning uziga xosismlari bor.

Shukufta- usimliksimon naksh elementi bulib, novdalarni bir- biri bilan boxlash va yuzlarni tuldirish uchun xizmat kiladi.Shukufta tuzilishi jixatidan turlicha buladi: bir yerda kichik, sodda bulsa,ikkinchi urinda ikki tomondan kelayotgan shukufta kushilshib madoxil yoki shunga uxshash shaklni xosil kiladi.

Boxlam va sirtmoklar- usimliksimon naksh elementlari bulib,bandi rumiy boftaning oddiy turi xisoblanadi.Sirtmoklar bir-biri bilan chalkashib utadi, umumiy kurinishi xuddi sakkiz rakamni eslatadi.

Bofta – tanob aylanib utib xosil kilgan shakl.Islimiy naksh elementi. Boftalar tugri,egri xamda aralash chiziklardan tashkil topgan buladi.

Marxula - kush chizikli gajak, usimliksimon naksh elementi. U misgarlik, nakkoshlik, zarduzlik kabilarda ishlatiladi.Agar bir novda bilan marxula tasvirlangan bulsa,marxulali novda deb yuritiladi. Naksh kompozisiyasida marxula tuldiruvchi element xisoblanadi.

Band ( novda)- nakshlardagi usimlik va daraxt novdasinimfodalovchi yul bulib, u tanobga nisbatan ikkilamchidir.band usimliksimon naksh elementi. U tabiatdagi daraxt yoki usimliklar novdasi va tanasining stillashtirib olingan tasviridir. xar bir naksh elementi singari bandning xam kompozisiyada

kullanishining uziga xos koidalari bor. Masalan, bandning anik bir ulchamda bulishi, kompozisiyada gullarga nisbatan saklanish, u nakshda gullar, barglar va tanoblarning tagidan utishi va xokazo. Turli nakkoshlar kompozisiyada banddan uziga xos usulda foydalanadilar, shuning uchun xam nakshlar bir- biridan fark kiladi.Chunonchi, Xorazm nakshida bandlar kam, kurtak va barglar deyarli bulmaydi. Novdalarning uzi prujina singari bir- biriga tukilib ketadi. Bundan tashkari, novda shoxlash paytida Buxoro, Toshkent va Samarkandn nusxalaridan kupincha shukufta bilan shoxlari bir- biriga mustaxkamlashsa, xorazimliklarda shukufta ajratilmay urniga novdacha kushiladi.

Tanob – arabcha chilvir,arkon degan ma’noni beradi.Murakkab nakshlar kompozisiyasi asosini tashkil etuvchi, negizi, nakshga shakl beruvchi chizik tanob deyiladi.(13-rasm) Markaziy Osiyoda nakshlarida bir xil yuxonlikdagi chizik bulib,ustalarimiz tabiat manzarasida uchraydigan anxorning shartli tasviri deb olganlar. Nakkosh naksh kompozisiyasini chizishdan oldin birinchi navbatda tanob tortib, keyin novdalarini chizadi, sungra novdalarni yunalishiga moslab gullar joylashtirib chikadi.

Ustalar naksh kompozisiyasi chizishda tanobni birinchi darajali chizik deb xisoblaydilar. Tanob ustidan xech kachon gul, novda yoki barg bosib utmaydi. Bundan tashkari, tanob tag ranglarni bir – biridan ajratib turadi. Tanoblar xilma-xil bulib, bir kompozisiyada tanob uzluksiz davom etadi, ba’zi nusxalarda tanob ikki nuktadan boshlanib, bir- biriga karab yunalib, bir- biriga chirmashib tugallanadi yana boshka nusxalarda tanob bir nuktadan boshlanib, ikki tomonga yunalib taksim chetiga borib tugallanadi.

Tanob egri, tugri, aralash chiziklardan tashkil topgan bulishi mumkin. Agar kompozisiyada tanoblar kesib utuvchi rangli nakshlarda ishlatilsa, unda albatta ikkalasi ikki xil rangga buyaladi. Agar bir xil rangda buyalsa, unda asosiy shakl uzini kursata olmaydi. Tanoblar bir – birini kesib utmay bir –biriga parallel bulsa, bunday nusxa «kush tanobliislimi» deb ataladi. Agar tugallangan mustakil kompozisiya bulsa, « kush tanobli namoyon» deb ataladi. Kompozisiyada tanob birdan xam ortik bulishi mumkin. Agar ikki tanobli kompozisiya bulsa, biri asosiy,

ikkinchisi yordamchi tanob deyiladi. Kompozisiyada tanobning ustidan novda, gul, barg va boshkalarning utishi mumkin emas.

Mashk. Usimliksimon naksh elementlarini chizish.

usimliksimon naksh elementlarini urganish, ma’lum konun- koidalar asosida mashk kilishdan boshlanadi. Buning uchun oddiy koxoz varaxi, katak daftar yoki rasm daftar, chizxich, kora kalam ( konstruktor), ok uchirxich va boshkalar kerak buladi.

Naksh elementlarini chizish alifbosi kuyidagi boskichda amalga oshiriladi(14,15,16,17,18,19,20,21,22,23,24 rasmlar).

1- mashk. Jalamda koxoz varaxiga dastlabki oddiy shakllarni tekis, ravon, yengil, simmetrik dinamik, toza va chiroyli chikkuncha mashk kilish.

2- Mashk. 12-rasmda berilgan usimliksimon naksh elementlarini kuyidagi guruxlarga ajratib chizishni mashk kilish.

usimliksimon naksh elementlari.

A) Barglar: 1,2,3,4,5- oddiy barglar, 6,7- kushbarg, 8,9,10,11,12- uchbarg, 14,15- turtbarg, 16,17,18,29,20,21- shoxbarg.

B) Gullar: 1- turt yaprokli gul, 2- olti yaprokli gul,3- besh yaprokli gul,4- turt yaprokli gul, 5,13- besh bargli oygul, 6,7- turt bargli oygul, 8,9,14- uch bargli gul, 10,11,12- paxta gul,15- pista gul, 16,17,18- kup bargli gul.

V) guncha.

G) Marxula: 1,2- marxula, 3- kush marxula, 4- kurtakli marxula.

D) Tanob va novda: 1- tanob, 2- kush tanob, 3,4- novda.

Ye) Shukufta.

Yo) Bofta: 1- egri chizikli bofta,2- tugri chizikli bofta, 3,4- murakkab shakldagi bofta.

J) Boxlam va sirtmok: 1…2- boxlam, 3- sirtmok.

Bu elementlarni chizishdan avval 9- rasmda berilgandek katak daftarga chizxich yordamida kalamni kattik bosmasdan, yengil yurgizib sxematik kataklar chizib, shu kataklarga naksh elementlarini chizish mashk kilinadi.Tur chiziklarning

katta yoki kichikligi naksh elementining xajmiga boxlik.Oddiy barglar chiziladigan tur chiziklarning eni va balandligi 25mm x 25mm buladi.Jolgan elementlar uchun xam ularning jamiga karab, tur chiziklar chiziladi. xar bir betga bitta naksh elementi kayta - kayta chizilib mashk kilinadi.Chizishda kalamni bosmasdan bir xil yuxonlikdagi chiziklar chizib, simmetriya va asimmetriyaga katta e’tibor berish xamda elementlarni ravon, tugri,ingichka va toza chizishga e’tibor berish kerak. Shuning uchun xam Sharkka mashxur buyuk nakkosh Maoniy shunday degan edi: «... agar kimki rasmdagi xar bir chizikka jon baxishlay olar ekan, u san’at kalitini egallagan buladi». xakikatan xamnaksh chizish konun-koidalariga amal kilib, nakshlarni sidkidildan, sabr tokat bilan chizsak, oldimizga kuygan maksadimizga erishamiz.

Nakkoshlikda naksh tasvirida odam, xayvonlar,kushlar va boshka narsalar xam tasvirlanadi. Ular uziga xos chizish geometriyasiga ega. Siz xam 25 rasmda berilgan ramziy naksh elementlarning ayrimlarini mashk kiling.

Oddiy naksh namunalarini chizish.

Uzbek xalk ustalari kullab kelayotgan jamiki nakshlar shartli tasvir bulishiga karamasdan uziga xos konuniyatga egadir. Bu konun-koidalar tabiatning uzidan olingan. Chunonchi, suvning okimini olaylik, u doim bir yunalishga karab okadi.usimliklar xam fakat bir tomonga karab usadilar. Majnuntol va bezakli tutlar kurinishda pastga karab teskari usayotgandek tuyuladi.Aslida esa u ildizdan tana, tanadan novda va barg bulib bir tomonlama yunalishda davom etib keladi. Tabiatning bu konuni nakshda uz aksini topadi.

xar bir insonning uz ismi bulganidek xar bir nakshning xam uziga xos nomlari buladi. Nakshning nomlanishi uning xarakterli urni bilan belgilanadi.

xar kanday naksh oddiy yoki murakkab bulishidan kat’i nazar, oddiy elementlarning ma’lum xoya, xarakter va vazifasiga muvofik joylashtirilishi, uzaro uyxunligi va mutanosibligi bilan xosil buladi. Bu kiskacha kompozisiya (mujassamot) deyiladi. Chunonchi, 1- gulni, ya’ni « bargli zanjira» ni olaylik.U barg va bargchalardan tashkil topgan bulib, bu elementlarning ma’lum musofada ritmik takrorlanishidan xosil buladi. Shuning uchun « bargli zanjira» deb

nomlangan. Yana bir misol uchun 2-gulni olaylik. Bu gulning nomi « yak raftor», ya'ni bir yunalishli islimi. Nakshda novda tulkinsimon chizik tarikasida davom etib ketaveradi. Yunalish buylab shoxlab gajak xolida egilib marxula bilan tugaydi. Shox usishi davomida kurtak va barg beradi. Bu nakshning xarakterli urni shundaki, naksh bir yunalishda usib boradi, shuning uchun «yak raftor» deb yuritiladi. Nakshda novda, marxula, kurtak va barg ishtirok etadi.

Endi biz naksh namunalarini kora kalamda chizishning konun- koidalari va boskichlari bilan tanishib chikamiz.

Oddiydan asta murakkablashib borgan 10- xoshiyasimon nakshlarni ustalarimiz tuzib chikib, ularga uziga xos nomlar kuyib chikkanlar.

Ular kuyidagilardan iboratdir:

«Bargli zanjira» (1-gul) 26-rasm

«Yak raftor» (2-gul) 27-rasm

«Bargli raftor» (3-gul) 28-rasm

«Bargli islimi» (4-gul) 29-rasm

«Aylanma islimi» (5-gul) 30-rasm

«Mexrob islimi» (6-gul) 31-rasm

«kush mexrobli islimi» (7-gul) 32-rasm

«Bofta islimi» (8-gul) 33-rasm

«Patnisgul islimi» (9-gul)- 34 rasm

«Islimi shukufta islimi» (10-gul) 35-rasm

MAShK. Oddiy naksh namunalarini chizishga doir mashklar.

Yukorida aytib utilgan unta gulni kalamda chizishni mashk kilamiz Bu mashklarni bajarish uchun katak daftar yoki rasm daftar, urta yumshoklikdagi kora kalam, chizxich kerak buladi. Katak daftarga nakshlarni tugri joylashtirish, kalamni yengil, bosmasdan chizish kerak.

1-gul. «Bargli zanjira» ni kalamda katak daftarda kuyidagi boskichda chizib boramiz (26-rasm,a). Chizishda ritm va simmetriyaga rioya kilishni unutmang.

1-boskich. Ikki parallel chizik chizib, ularning oralixi teng bulaklarga bulinadi.Kvadratlarga diagonal chiziklar utkaziladi.Bularning xammasi ingichka chiziklar asosida bajariladi.

2-boskich. Ikki kvadrat oralixiga yarim aylana chizib chikiladi.

3-boskich. Yukorida chizilgan yarim aylanalarni teskari, ya’ni ishkomga uxshatib chiziladi.

4-boskich. Ikkala bargning pasti va yukorisidan kurtaklar chikariladi.

Xuddi shu singari boskichlar asosida kolgan 9 naksh gullarini rasmga karab chizib oling. xar bir nakshni puxta urganib olish uchun uni 5-7 marta takror-takror chizib mashk kiling. Naksh gullar chizishni shunday urganingki, ularni yoddan chiza oladigan buling. Bu mashklarni bajarishda chiziklarni ravon, nafis va chiroyli chikishiga e’tibor bering.